



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

**TALABA YOSHLAR MA'NAVY KAMOLOTIDA IJTIMOIY XAMKORLIK
MASALALARINING FALSAFIY TAXLILI**

Mamadaliyev Muzaffar Umarovich
University of Economics and Pedagogy, o'qituvchi

Annotatsiya

Maqolada yoshlar ma'naviyatini shakllantirish masalalari, davlatimiz tomonidan ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohatlar, yoshlarning ma'naviy axloqiy tarbiyasi, yoshlar ongiga salbiy ta'sir etuvchi g'oyalar, mafkuraviy immunitet, yoshlar tarbiyasida maxalla, oila va ta'lim muassasalari xamkorligi, ajdodlarimiz urf-odatlaridan foydalanish, ota-ona ma'suliyati hamda boy ilmiy merosimiz va undan xar foydalanish masalalari yoritib berilgan. Xususan, A.R.Beruniy, A.N.Forobiy, Mahmud Qashqariy, Kaykovus, Sadiy, A.Temur, A.Jomiyning, A.Navoiy, Yusuf Xos Xojib, A.Avloniy kabi ko'plab olimlarimiz fikrlari va asarlari yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda ahamiyati maqolada atroflicha tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'rifat, oila, mahalla, ta'lim, meros, qadriyat, mexr.

**ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ВОПРОСОВ СОЦИАЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В
ДУХОВНОМ РАЗВИТИИ СТУДЕНТСКОЙ МОЛОДЕЖИ**

Мамадалиев Музаффар Умарович
University of Economics and Pedagogy, преподаватель

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы формирования духовности молодежи, реформы, проводимые государством в сфере образования, духовно-нравственное воспитание молодежи, идеи, негативно влияющие на умы молодежи, идеологическая невосприимчивость, сотрудничество общества, семьи и образовательных учреждений в воспитании молодежи, использование традиций наших предков, родительская ответственность, а также наше богатое научное наследие и его разнообразное применение. В частности, подробно анализируется значение идей и трудов многих наших ученых, таких как А.Р. Беруний, А.Н. Форобий, Махмуд Кашкарий, Кайковус, Садий, А. Темур, А. Джомий, А. Навой, Юсуф Хос Ходжиб, А. Авлоний, в формировании духовности молодежи.

Ключевые слова: духовность, просвещение, семья, соседство, образование, наследие, продвижение, ценность, доброта.

**PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF SOCIAL COOPERATION ISSUES IN THE SPIRITUAL
PERFECTION OF STUDENT YOUTH**

Mamadaliyev Muzaffar Umarovich
University of Economics and Pedagogy, Lecturer

Abstract

The article discusses the issues of shaping the spirituality of youth, the reforms carried out by our state in the field of education, the spiritual and moral upbringing of youth, ideas that negatively affect the minds of youth, ideological immunity, the cooperation of the community, family and educational institutions in the upbringing of youth, the use of the traditions of our ancestors, parental responsibility, as well as our rich scientific heritage and its various uses. In particular, the importance of the thoughts and works of many of our scientists, such as A.R. Beruniy, A.N. Forobiy, Mahmud Kashkariy, Kaykovus, Sadiy, A. Temur, A. Jomiy, A. Navoiy, Yusuf Khos Khojib, A. Avloniy in shaping the spirituality of youth is analyzed in detail in the article.

Keywords: spirituality, enlightenment, family, neighborhood, education, heritage, promotion, value, kindness.

Islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri insoniyat ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish bo'lib, yurtimizda davlat va jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu ma'noda o'sib kelayotgan yosh avlodni yuksak ma'naviyatli, go'zal axloqiy sifatlar ruhida tarbiya toptirish zarurati yuzaga keladi. Yuksak ma'naviyat va axloq jamiyat taraqqiyoti davomida vujudga kelib, tarkib topib, takomillashib keladigan me'yor-qoidalardan iborat bo'lib, u insonning jamiyatga bo'lgan

munosabatlarini tartibga soladi. Bu esa insondan jamiyatga xos zarur axloqiy sifatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Shunga muvofiq, biror bir shaxsning yurish-turishiga qarab uni axloqli yoki axloqsiz deb baholashga imkon beradi. Abdulla Avloniyni axloqqa bergan ta'rifi ham naqadar muhim ekanligini bildiradi. Jumladan: "Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqning yaxshiligini, yomon xulqning yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladur g'on kitobni axloq deyilur", deb bejiz aytmaganlar.

Davlatimiz mustaqilligini mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy tarbiya va boshqa sohalaridagi islohotlarning taqdiri, yurtimizning buyuk kelajagini barpo etish fuqarolarning, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasiga, yuksak ongliligi va ijtimoiy faolligiga bevosita bog'liq. Shu bois mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalariga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Zero, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatish, insonning hayotda o'z o'rnini topishini tezlashtirish, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish, insondagi mavjud salohiyatni to'la ro'yobga chiqarish, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarashga ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgandir.

Yoshlar ongini zaharlashga qaratilgan turli tahdidlar, ma'naviy xurujlar avj olgan bugungi murakkab sharoitda xushyorlik va ehtiyotkorlik zarurligini barchamiz angladik va his etib turibmiz. Chunki turli niqoblar ostida yoshlar qalbiga chuqurroq kirib, ularning ma'naviyatini zaharlashga urinayotgan kuchlar har birimizni tashvishga solmoqda. Jumladan, Birinchi Prezidentimiz I. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida: "Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi. Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli baloqazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda", deb ta'kidlab o'tadi.

Shu boisdan ham yoshlar o'rtasida ma'rifiy targ'ibot tadbirlari tashkil etilib, ularning yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishining oldini olish choralari ko'rish bugungi dolzarb vazifadir. Jamiyat hayotida ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlar hamisha muhim ahamiyat kasb etib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniyni: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir", deb ta'kidlaganligi har doim o'z tasdig'ini topmoqda. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya ishining davlat darajasidagi ustuvor vazifaga aylantirilishi ham jamiyatimizda yoshlarni ma'naviy barkamol, kuchli, bilimli va yuksak tafakkurga ega bo'lgan kadrlar qilib tarbiyalashda qanchalik muhim ish ekanligining isbotidir.

Yosh avlodning ma'naviy tarbiyasida ta'lim muassasalari, oila va mahalla o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish va takomillashtirish zarurligi oydinlashmoqda. Har bir oila a'zosi oilada sog'lom muhitni yaratish, farzandlar uchun ota-onaning har tomonlama ibratli bo'lishi, farzandlarda ota-onaga va Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, ularga chuqur ilm berish, ularni ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar qilib tarbiyalash, iqtisodiy va ijtimoiy muhit yaratish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqbol g'oyalari va milliy tafakkurga sadoqat ruhida tarbiyalash, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim berish, insonda mavjud bo'lgan iste'dodlarni rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish kabi masalalarga e'tibor qaratishi zarur.

Mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilish, ma'nan nosog'lom oilalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, ota-onalar orqali yosh avlodga mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy odob, baynalmilallik kabi xislatlarni singdirish, ajdodlarimizning tarbiyaviy o'gitlarini singdirib borish, mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarning imkoniyatlaridan o'quv-tarbiya muassasalarining moddiy-texnik negizini mustahkamlashda foydalanish, o'quv-tarbiya muassasalari bilan birgalikda turli ko'rik-tanlovlar, sport musobaqalari, anjumanlar, bayram va bellashuvlar tashkil qilish, turli yo'nalishlarda iqtidori bo'lgan yoshlarni ijtimoiy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, turli to'garak va

klublar faoliyatini tashkil qilish, mahallalarda olib borilayotgan barcha tarbiyaviy, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlarida hamkorlikni yanada kuchaytirish zarur. Yuqorida ko'rsatilganidek, mahalla va oila azaliy udumlar, urf-odatlar va an'analariga tayangan holda ulkan ma'naviy tarbiya vazifasini bajaradi. Keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibрати, jamoaning hamjihatligi orqali odamlar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi. Yoshlarimizning ma'naviy yetuk bo'lib yetishishida ta'lim muassasalari bilan birgalikda oila va mahalla birday mas'uldir. Buning uchun, birinchi navbatda, ota-ona va mahalla har jabhada yoshlarga ibrat, o'rnak bo'lishi lozim. Yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda oila va mahalla o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatsa, bu ikki tarbiya maskani tarbiya ishida katta samaradorlikka erishishi mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMA. Bugungi kunda Respublikamiz mahallalarida madaniy va ma'rifiy ishlarni keng yo'lga qo'yish, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni amalga oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Bugun ma'naviyat boshqa sohalardan o'n qadam oldinda yurishi kerak, ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart! Mahallaning bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biri mahalladagi oilalarni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasini hamkorlik asosida nazorat qilib borishdir. Yoshlar tarbiyasida biron bir ijobiy samaraga erishish uchun, avvalo, hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim. Ta'lim muassasalari bilan hamkorlik yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy va tarixiy an'analari, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslanib, talaba-yoshlar shaxsini tarbiyalash va kamol toptirishga xizmat qiladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha yig'ilishlar, ustoz va murabbiylar, ota-onalar, mahalla faollari hamda mahalla yoshlari ishtirokida o'tkaziladigan tadbirlar mahalladagi ma'naviy tarbiya borasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa yoshlar ma'naviyatining yanada shakllanishiga xizmat qilishi barchamizga ayon.

Hozirgi kunda yoshlarning ma'naviy ehtiyojini qondirish an'analari va yangi dasturlar ishlab chiqishni taqozo etadi. Chunki mahallada va oilada olib boriladigan urf-odatlar hamda turli xil marosimlar o'z mohiyatiga ko'ra ma'naviy madaniyat va turmush tarzining muhim elementlari sifatida har bir shaxsni ijtimoiy muhit bilan bog'lovchi vosita hisoblanadi. Eng muhimi, yangi urf-odatlar, ayniqsa, yoshlarning o'zaro munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, dunyoni aslidek tushunish va idrok etishga, umuman, inson ma'naviy qiyofasining mukammallashuviga olib keladi. Milliy an'analimiz va urf-odatlarimiz xalqimiz hayotining mazmuniga, kundalik turmush tarziga singib ketganligi sababli insonni axloqiy ruhda tarbiyalashning muhim vositasi bo'lib qolgan. Shu ma'noda yoshlarning ma'naviy-axloqiy va estetik qarashlari, xulq-atvori hamda xatti-harakatlarini baholashda ularning burch, vijdon, or-nomus, g'urur, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi tushunchalarga bo'lgan munosabatlarini hisobga olish zarur.

Hozirgi davrda mahalladagi oilalarning kamol topishi ko'p jihatdan yangi ijtimoiy sharoitga qay darajada mos kelishiga, ularning qanchalik yaxshi tashkil etilganligiga va kishilarning madaniy-maishiy ehtiyojlari qay darajada qondirilayotganligiga bog'liqdir. Oiladagi va mahalladagi moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlar kishilarning o'zaro munosabatlarini mustahkamlaydi, shaxsning madaniy saviyasini ko'taradi. Ichki madaniyatning tarkibiy qismi hisoblangan milliy qadriyatlar, ya'ni an'ana va urf-odatlar inson hayotining asl mohiyatini tashkil etadi. Zero, an'ana va urf-odatlarining yoshlar ruhiyatiga rag'batlantiruvchi ta'sir kuchini ota-onalar va mahalla doimo nazarda tutmoqlari kerak. Ayniqsa, oilaviy-maishiy va ijtimoiy turmush urf-odatlariga, ijtimoiy vazifalarga aniq tarixiy nuqtai nazardan yondashish, ularga mustaqillik sharoiti, milliylik va islomiylik nuqtai nazaridan baho berish, birinchidan, yoshlarni ma'naviy jihatdan tarbiyalaydi; ikkinchidan, oilaning negizini mustahkamlaydi; uchinchidan, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatni mutlaq ijobiy tomonga o'zgartiradi. Bu esa, o'z navbatida, oila a'zolarining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga olib keladi.

Ota-bobolarimizdan meros qolgan chiroyli va ramziy ma'noga ega bo'lgan urf-odatlarini bilish, bevosita ularda ishtirok etish va aynan ana shu urf-odatlarining o'tkazish tartibini, qonun-qoidalarini bilish yoshlarning ma'naviy shakllanishida muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Mahallalarda yoshlarni tarbiyalashda ota-bobolarimiz uslubini qo'llash, tarixiy marosimlarimizga va milliy tarbiyamizga asoslanishimiz lozim. Ta'lim-tarbiya sohasidagi eng muhim jihat umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlar ustuvorligidir. Bu esa yoshlarga boy tarixiy, milliy-madaniy meros, ming yillar davomida shakllangan milliy tarbiyamiz an'analari asosida tarbiya berishdir. Zero, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning "Muruvvat va futuvvat eng yaxshi fazilat" deb ta'kidlagani bejiz emas. Abu Nasr Forobiy esa: "Insonni baxt-saodatga eltuvchi jamoa yetuk jamoa bo'la olishi mumkin. Komil insonni yaratish, uni baxt-saodatga eltish har qanday davlat va jamoa boshlig'ining vazifasi bo'lishi darkor", degan so'zlari bilan har qanday insonga yuksak mas'uliyat yuklaydi.

Yuksak ma'naviyatli komil insonlarni tarbiyalashda oilaviy muhit va ta'lim muassasalarida sog'lom ma'naviy muhitni qaror toptirish muhim ahamiyatga ega. Inson o'z hayoti davomida o'zidagi axloqiy-ma'naviy kamolotga qanchalik intilsa, shunchalik o'z xato-kamchiliklarini anglab boradi. Boy ma'naviy merosimiz, qadimgi bitiklar, yozma manbalar, pandnomalar hamda o'gitlardagi ma'naviy-axloqiy masalalar bizning jamiyatga bo'lgan munosabatimizning negizini tashkil qiladi. Bu esa o'z navbatida yoshlarda jamiyatga bo'lgan hurmatni yuksaltirish, mustaqilligimizni yanada mustahkamlash, axloqiy madaniyatga ega bo'lish, o'z-o'zini anglash kabi xislatlarni rivojlantirishga olib keladi. Yoshlar o'rtasidagi do'stlik, hamjihatlik, hamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash kabi fazilatlar xalqimiz va davlatimiz taraqqiyotining asosiy negizlaridan biridir.

Yoshlar ma'naviyatini shakllantirish va ularni komil inson qilib tarbiyalashda quyida keltirilgan ajdodlarimiz fikrlari va asarlaridan foydalanish naqadar maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi.

Yusuf Xos Hojib ota-ona o'g'il va qiz tarbiyasidagi ijobiy mas'uliyat muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ular tanlagan to'g'ri yo'l farzandlarning kamoloti uchun nihoyatda muhimdir. Mahmud Qoshg'ariy esa xalqlarning urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlarini, o'sha davr kishilarining o'ziga xos ruhiy-ma'naviy olamini bayon etib, insonning ruhiy olami, ma'naviyati, ilm-fan, ma'rifat va madaniyat bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Bulardan tashqari, Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" kabi ko'plab mutafakkirlarimiz asarlarini ham aytib o'tishimiz mumkin.

Mana shunday buyuk meroslarimizdan foydalangan holda yoshlar ongida yuksak malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirish vazifasi, avvalo, oilaga, mahalla jamoasiga, shuningdek, ta'lim muassasalariga yuklatilishi yoshlar ma'naviyati va tarbiyasini to'g'ri yo'naltirishning muhim yechimidir. Ma'lumki, bugungi kunda yoshlar tarbiyasida oila va ta'lim muassasalari hamkorligining o'rni tobora ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida oilaning jamiyat va davlat oldida mas'uliyatini anglab yetadigan komil insonlarni tarbiyalashdagi o'rniga alohida e'tibor qaratilgan. Tarbiya o'ta murakkab va serqirra jarayon bo'lib, yoshlar tarbiyasi, ularning ijtimoiy hayot jarayonidagi o'rni bugungi kunda sezilarli darajada ortib bormoqda. Oilada singdirib boriladigan odob-axloq qoidalari, ijtimoiy foydali mehnat, ta'lim olish, bo'sh vaqtlarida turli xil to'garaklarga qatnashish yoshlarning kelgusi hayotlarida ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning faol subyektlariga aylanishlarida muhim ahamiyatga ega. Yoshlarda ma'naviyatni shakllantirish esa eng muhim va murakkab vazifalardan biridir.

Oilada ota-ona o'z farzandlariga o'zlarining kasb-koriga sadoqat, yashab turgan zaminiga mehr-muhabbat, xulq-atvori, bir-biriga bo'lgan o'zaro hurmati, jamiyat va davlat oldidagi burchlarini qanchalik ado etishlari bilan farzandlariga ibrat maktabi bo'lishlarini unutmaslik lozim. Oilada yoshlarni ma'naviy shakllantirishda, barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda ota-ona har tomonlama bilimdon, ustoz, ma'naviy, siyosiy va huquqiy bilimlarga ega bo'lishi lozim. Chunki oilada bola ma'naviy olamini yaratadi, yaxshilik va yomonlik haqidagi eng sodda tushunchalarni shakllantiradi, atrofida sodir bo'ladigan voqea-hodisalarga ijobiy yoki salbiy fikrlarini bildirib boshlaydi. Ayni paytda ota-ona o'zining bilimdonligi bilan to'g'ri va aniq yo'l ko'rsatishi, ijobiy fikrlashni to'g'ri yo'lga qo'yishi, yaxshi va yomonga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishni faqat va faqat tarbiya orqali amalga oshiradi.

XULOSA. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, dunyoning biror bir davlatida mahalla institutiga bo'lgan e'tibor bizning mamlakatimizdagidek emas. Shunga ko'ra, tarbiyada o'zaro hamkorlik va unga xos tajribalarni o'rganish hamda ommalashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. O'zbekiston mustaqilligi, yurtimiz ravnaqi yoshlarni o'qish, izlanish va mehnatdan qochmaydigan, har qanday qiyinchiliklardan hayiqmaydigan, salbiy illatlarga nafrat bilan qarash ruhida tarbiyalashni talab qiladi. Shunga ko'ra, bugungi O'zbekiston zaminida yashayotgan har bir yosh shu o'lkaning haqiqiy egasi bo'lib yetishishi, uning gullab-yashnashi haqida qayg'urishi, erishgan yutuqlarni yanada mustahkamlab borishi lozim deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. 2023-yil 22-dekabr. Toshkent.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008-y.
3. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992-y.
4. Abu Rayhon Beruniy. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993-y.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993-y.